

CHET ELLIK INVESTITSİYALARINING IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI VA ULARNING MILLIY IQTISODIY O'SISHNING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Xayirbaeva Balzira Paraxat qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
«Moliya va moliyaviy texnologiyalar» yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet el investitsiyalarining iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati va milliy iqtisodiyotga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, chet ellik investitsiyalar milliy iqtisodiyotni tizimlashtirishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, mehnat unumdorligini o'ttirishga va innovatsion texnologiyalarning transfertiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, chet ellik investitsiyalar orqali yangi ish o'rinlarining yaratilishi va xalq ijtimoiy holatining yaxshilanishi kabi makroiqtisodiy ta'sirlar ilmiy yo'nalishda ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda hozirgi dunyo investitsiya uslublariga tahlil qilinib, rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsion harakatlarning dinamikasi ko'rib chiqiladi. Xalqaro tashlilotlarning (Jahon banki, UNSTAD) ma'lumotlariga tayanib, dunyo investitsion faollikning o'zgarish sabablari bilan asosiy tendensiyalari tahlil qilinadi. Ayniqsa geosiyosiy muvozanatsizlik, iqtisodiy belgisizlik va xalqaro bahoda raqobatning kuchayishi investitsion harakatlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi.

Shu bilan birga ushbu maqolada investitsiyani jalb qilishni o'ttirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Ular qatoriga institutsional o'rtning muvozanati, huquqiy bazaning yaxshilanishi, soliq tizimining ochiqqligi, infratuzilmaning rivojlanishi va inson kapitalining sifatini o'ttirish kabi omillar tadbiiq etiladi. Tadqiqot natijalarida ko'rsatilganidek, samarali investitsion siyosatni olib borish milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli va doimiy rivojlanishini ta'minlashning ahamiyatli sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Investitsiya, iqtisodiy o'sish, investitsion siyosat, investitsiyani jalb qilish, kapital qo'yilmalar, infratuzilma, sonli iqtisodiyot, innovatsiya, muntazam rivojlanish.


Hozirgi dunyo miqyosida dunyo iqtisodiyoti murakkab va o'zaro bog'liq tizimga aylandi. Bu tizimda kapitalning erkin harakati iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlarining biriga aylanmoqda. Ayniqsa chet ellik to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy yuksalishini tezlashtirishning ahamiyatli vositasi sifatida o'ziga hos ma'noga ega. Chet el investitsiyalari faqat moliyaviy resurs gina emas, shuningdek texnologik yangiliklarni tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonlarni kengaytirish, boshqarish tajiribasini yaxshilash va xalqaro baholarga chiqish imkoniyatini o'ttirish vositasi sifatida ko'rsatiladi. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda investitsion siyosatni iqtisodiy strategiyaning asosiy yo'nalishi sifatida ko'rish mumkin. Jahon banki va UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, chet el investitsiyalari doimiy moliyaviy o'sishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Investitsiyalarning eng ahamiyatli ta'sirlaridan biri – texnologik yangilanishdir. Xorijiy kompaniyalar odatda o'zi bilan birga zamonaviy ishlab chiqarish kompaniyalarini, boshqarish tajribalarini va xalqora standartlarni olib keladi. Bu kabi transferlar mahalliy iqtisodiy o'rtani raqobatga bardoshlilikini orttiradi va umumiy moliyafiy samaradorlikni oshiradi. Shuningdek mehnat resurslarining sifati yaxshilanib, ishchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradi.

Dunyo iqtisodiyotida investitsion yo'nalishlarining o'zgarishi seziladi. Hozirgi kunda kapital ko'pincha yuqori texnologik va kelajagi bor yo'nalishlarga qaratilmoqda. Masalan, sonli iqtisodiyot, yashil energetika, logistika va qayta ishlash kabilar investitsiyani o'ziga jalb qilishda asosiy o'ringa chiqdi. Bu tendensiya dunyo miqyosidagi iqtisodiyotning ishlab chiqarishdan innovatsiyaga o'zgarayotganligini ko'rsatadi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda investitsiyalarning geografik va kasblik tuzilmasi ko'zga ko'rinarli darajada o'zgarishga uchragan, bu esa xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog'liq. Investitsiyaning ortishi avtomat ravishda iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatadi, lekin uning samaradorligi mamlakatning ichki holatiga bog'liq. Agar mamlakatda muntazam huquqiy tizim, ochiq baho va samarador boshqarish bo'lsa, unda chet ellik kapital uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsadi. Institutsional kuchsizlik esa investitsiyalarning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli faqat investitsiyani tortish emas, uni to'g'ri boshqarish ham katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (FDI) barqaror o'sish va ayrim tebranishlar bilan xarakterlanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda O'zbekistonga kirgan FDI hajmi taxminan 2.84 milliard AQSh dollarini tashkil etib, 2023 yilga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatgan.

Shu bilan birga, FDI oqimining iqtisodiyotdagi ulushi ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. 2024 yilda xorijiy investitsiyalar YaIMga nisbatan taxminan 2.47% ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich mintaqaviy o'rtacha darajadan yuqori hisoblanadi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonga kirib kelayotgan investitsiyalar asosan sanoat, energetika va infratuzilma sohalariga yo'naltirilmoqda. Bu holat iqtisodiyotning real sektorini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy o'sish bo'yicha chet el investitsiyalari uch asosiy yo'nalish orqali ta'sir qiladi: birinchidan, ishlab chiqarishni oshiradi; ikkinchidan, texnologik yaxshilanishga yordam beradi; uchinchidan, mehnat bozorini kengaytirib, moliyaviy holatni yaxshilaydi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, investitsiya muntazam ravishda tortilga mamlakatlarda YIM o'sishi yuqori va ularda iqtisodiyot muvozanatli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, chet el investitsiyalari faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydigan vosita gina emas, shuningdek mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining aspsiy qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNCTAD. *World Investment Report 2024*. United Nations Conference on Trade and Development, Geneva.
2. Jahon banki (World Bank). *Global Economic Prospects 2024*. Washington, D.C.
3. Jahon banki ma'lumotlar bazasi – Foreign Direct Investment inflows (Uzbekistan). <https://data.worldbank.org>
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Investitsiyalar va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar". <https://stat.uz>
5. OECD. *Investment Policy Reviews: Uzbekistan*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
6. IMF (International Monetary Fund). *World Economic Outlook 2024*. Washington, D.C.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining investitsiya va iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari.